

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

“Kiritdi”

O‘zbekiston davlat  
jismoniy tarbiya va  
sport universiteti rektori

R. Matkarimov

2026-y.

“Kelishildi”

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va  
innovatsiyalar vazirining  
birinchi o‘rinbosari

S. Radjabov

2026-y.

“Tasdiqlayman”

O‘zbekiston Respublikasi  
Sport vazirining  
o‘rinbosari

Sh. Maxmudov

2026-y.

IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI  
VA BAHOLASH MEZONI

**61010200 - Sport faoliyati** (*basketbol, boks, voleybol, velosport, gimnastika, suzish, yengil atletika, gandbol, qilichbozlik, og‘ir atletika, eshkak eshish, tennis, futbol, badiiy gimnastika, dzyu-do, erkin kurash, belbog‘li kurash, taekvondo WT, sambo, kurash, sinxron suzish, badminton, yunon-rim kurashi, ot sporti, triatlon, biatlon, xokkey, regbi, shaxmat, karate WKF, tog‘ chang‘isi, stol tennisi, figurali uchish, chim ustida xokkey, kik-boks, mini-futbol, kamondan otish, muay-tay, kibersport, suv polosi, akademik eshkak eshish, zamonaviy beshkurash, bodybuilding va fitnes, snovbord, qo‘l jangi, ayollar kurashi, figital sport, o‘q otish va stenddan otish, o‘zbek jang sana‘ti, kriket, sport akrobatikasi, pencak silat, turon*) ta’lim yo‘nalishlari uchun.

**61010300 - Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ta’lim yo‘nalishi** uchun.

**O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Kuzatuv Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2026 yil 25 may dagi 2 -sonli majlis bayoni.**

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish, mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish hamda natijalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda mazkur soha rivojiga qaratilgan qator me’yoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilingan va jadallikda hayotga tatbiq etib kelinmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PF-5924-son farmoni**, 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **PQ-60-son qarori**, 2022-yil 3-noyabrda “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PQ-414-son qaror va farmonlari** ijrosini sifatli bajarish ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning Nukus filialidagi Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturlari sport maktablari hamda Respublika Olimpiy va paralimpiy sport turlariga tayyorlash markazlarining jismoniy tarbiya va sport dasturlari asosida tuzilgan va abituriyentlarning jismoniy mashqlari bajarishdagi amaliy harakat ko‘nikma va malakalarini baholashga mo‘ljallangan.

Mazkur dasturlarni tuzishda sport assotsiatsiyasi, sport federatsiyalar, oliy sport mahorati maktablari va sport maktablari takliflari inobatga olingan hamda ular tomonidan taqrizlar berilgan.

Dastur 61010200–Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi (basketbol, boks, voleybol, velosport, gimnastika, suzish, yengil atletika, gandbol, qilichbozlik, og‘ir atletika, eshkak eshish, tennis, futbol, badiiy gimnastika, dzyu-do, erkin kurash, belbog‘li kurash, taekvondo WT, sambo, kurash, sinxron suzish, badminton, yunon-rim kurashi, ot sporti, triatlon, biatlon, xokkey, regbi, shaxmat, karate WKF, tog‘ chang‘isi, stol tennisi, figurali uchish, chim ustida xokkey, kik-boks, mini-futbol, kamondan otish, muay tay, kibersport, suv polosi, akademik eshkak eshish, zamonaviy beshkurash, bodybuilding va fitnes, snoubord, qo‘l jangi, ayollar kurashi, figital sport, o‘q otish va stendan o‘q otish, o‘zbek jang sana’ti, kriket, sport akrobatikasi, pencak silat, turon, 61010300–Adaptiv jismoniy tarbiya va sport kabi sport turlari bo‘yicha (kasbiy) ijodiy imtihonlarni o‘tkazish tartibi, abituriyentlarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi amaliy mahorati, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablar hamda baholash mezonlari o‘z aksini topgan.



2026/2027 O'QUV YILI UCHUN **KRIKET** IXTISOSLIGIDAN KASBIY (IJODIY) IMTIHONLARINING ME'YORIY TALABLARI VA BAHOLASH MEZONLARI

(Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha maksimal ball - 63 ball)

Erkaklar va ayollar uchun

<b>1-test:</b> 4 marta 10 metr masofaga “mokkisimon” tartibda yugurish (soniya) (yugurishga sarflangan vaqt hisoblanadi) imtihon oluvchining signalidan so'ng bajariladi			<b>2-test:</b> To'ldirilgan to'pni bosh orqasidan uloqtirish (metr) (O'g'il bolalar uchun 3 kg, qiz bolalar uchun 2 kg., to'ldirma to'p uloqtirilgan masofa hisoblanadi) imtihon oluvchining signalidan so'ng bajarilad			<b>3-test:</b> Turgan joydan uzunlikka sakrash (metr) (turgan joydan uzunlikka sakragandagi masofa hisoblanadi) imtihon oluvchining signalidan so'ng bajarilad		
<b>Natija (o'g'il bolalar)</b>	<b>Natija (qiz bolalar)</b>	<b>Ball</b>	<b>Natija (o'g'il bolalar)</b>	<b>Natija (qiz bolalar)</b>	<b>Ball</b>	<b>Natija (o'g'il bolalar)</b>	<b>Natija (qiz bolalar)</b>	<b>Ball</b>
8,00	9,00	21,00	11,00	9,30	21,00	2,70	2,20	21,00
8,10	9,10	20,50	10,95	9,25	20,00	2,69	2,19	20,58
8,20	9,20	20,00	10,90	9,20	19,00	2,68	2,18	20,16
8,30	9,30	19,50	10,85	9,15	18,00	2,67	2,17	19,74
8,40	9,40	19,00	10,80	9,10	17,00	2,66	2,16	19,32
8,50	9,50	18,50	10,75	9,05	16,00	2,65	2,15	18,90
8,60	9,60	18,00	10,70	9,00	15,00	2,64	2,14	18,48
8,70	9,70	17,50	10,65	8,95	14,00	2,63	2,13	18,06
8,80	9,80	17,00	10,60	8,90	13,00	2,62	2,12	17,64
8,90	9,90	16,50	10,55	8,85	12,00	2,61	2,11	17,22
9,00	10,00	16,00	10,50	8,80	11,00	2,60	2,10	16,80
9,10	10,10	15,50	10,45	8,75	10,00	2,59	2,09	16,38
9,20	10,20	15,00	10,40	8,70	9,00	2,58	2,08	15,96
9,30	10,30	14,50	10,35	8,65	7,00	2,57	2,07	15,54
9,40	10,40	14,00	10,30	8,60	5,00	2,56	2,06	15,12
9,50	10,50	13,50	10,25	8,55	3,00	2,55	2,05	14,70
9,60	10,60	13,00	10,20	8,50	1,00	2,54	2,04	14,28
9,70	10,70	12,50	10,15 va kam	8,45 va kam	0,00	2,53	2,03	13,86
9,80	10,80	12,00				2,52	2,02	13,44
9,90	10,90	11,50				2,51	2,01	13,02
10,00	11,00	11,00				2,50	2,00	12,60

10,10	11,10	10,50				2,49	1,99	12,18
10,20	11,20	10,00				2,48	1,98	11,76
10,30	11,30	9,50				2,47	1,97	11,34
10,40	11,40	9,00				2,46	1,96	10,92
10,50	11,50	8,50				2,45	1,95	10,50
10,60	11,60	8,00				2,44	1,94	10,08
10,70	11,70	7,50				2,43	1,93	9,66
10,80	11,80	7,00				2,42	1,92	9,24
10,90	11,90	6,50				2,41	1,91	8,82
11,00	12,00	6,00				2,40	1,90	8,40
11,10	12,10	5,50				2,39	1,89	7,98
11,20	12,20	5,00				2,38	1,88	7,56
11,30	12,30	4,50				2,37	1,87	7,14
11,40	12,40	4,00				2,36	1,86	6,72
11,50	12,50	3,50				2,35	1,85	6,30
11,60	12,60	3,00				2,34	1,84	5,88
11,70	12,70	2,50				2,33	1,83	5,46
11,80	12,80	2,00				2,32	1,82	5,04
11,90	12,90	1,50				2,31	1,81	4,62
12,00	13,00	1,00				2,30	1,80	4,20
12,10	13,10	0,50				2,29	1,79	3,78
12,20 va uqori	13,20 va uqori	0				2,28	1,78	3,36
						2,27	1,77	2,94
						2,26	1,76	2,52
						2,25	1,75	2,10
						2,24	1,74	1,68
						2,23	1,73	1,26
						2,22	1,72	0,84
						2,21	1,71	0,42
						2,20 va kam	1,70 va kam	0,00

2026/2027 O'QUV YILI UCHUN **KRIKET** IXTISOSLIGIDAN KASBIY (IJODIY)  
IMTIHONLARINING ME'YORIY TALABLARI VA BAHOLASH MEZONLARI

**Ixtisoslik bo'yicha**

Har bir test mashqi son va texnik jihatlardan to'g'ri va maksimal natija bilan bajarilsa, maksimal ball qo'yiladi. Lekin test mashqini bajarishda yo'l qo'yilgan har bir texnik xato uchun 1 ball olib tashlanadi, 10 ta texnik xato – minus 10 ball.

1-test – 10 ball va texnika uchun – 10 ball, jami – 20 ball.

**1-test:** 21 metr uzoq masofada joylashgan viketga qaratib texnik jihatdan to'g'ri usulda 6 marta to'pni uloqtirish (viketga tekkan to'plar soni hamda uloqtirishda oyoq, qo'l va umumiy texnik harakatlar baholanadi) imtihon oluvchining signalidan so'ng bajariladi:

21. To'pni to'g'ri ushlab;
22. Yugurish vaqtida qo'llarni to'g'ri harakatlantirish;
23. Yugurishdan keyingi deysinib qo'nishdagi oyoq va qo'llarni to'g'ri harakatlantirish;
24. To'pni uloqtirayotganda to'p uloqtirayotgan qo'l tirsagining bukilmaligi;
25. To'pni uloqtirayotgan vaqtda to'pni qo'ldan vaqtida (erta/kech emas) chiqarib yuborish;
26. To'pni nishonga aniq uloqtirish.

**Izoh:** To'pni uloqtirishni boshlash imtihon oluvchining signalidan so'ng bajariladi. To'pni viketga uloqtirish 20 soniya ichida amalga oshirilishi kerak. Belgilangan chiziqni bosmasdan to'p uloqtirilsa, qayta takrorlash huquqi berilmaydi, uloqtirilgan to'p hisobga olinmaydi.

2-test – 23 ball va texnika uchun – 10 ball, jami – 33 ball.

**2-test:** 21 metr masofadan 10 marta maxsus to'p uloqtiruvchi uskuna yordamida o'rta tezlikda uloqtirilgan to'pni to'qmoq bita bilan qaytarish (har bir to'pni texnik jihatdan to'g'ri qaytarish va qaytarilgan to'plar 10 metr uzoqlikda qo'yilgan eni 10 metr bo'lgan 2 konus o'rtasidan o'tishlar soni baholanadi) imtihon oluvchining signalidan so'ng, bajariladi:

1. Bitani (to'qmoqni) to'g'ri ushlab;
2. Uloqtiriladigan to'pni qaytarish uchun mo'ljallangan dastlabki holatga to'g'ri turish;
3. To'pni qaytarish vaqtida o'naqaylar uchun chap oyoqni chapaqaylar uchun o'ng oyoqni oldinga chiqarish;
4. To'pni qaytarish vaqtida qo'llar harakatlarini to'g'ri nazorat qilish;
5. To'pni bita/to'qmoq bilan to'g'riga qaratib urish.

**Izoh:** To'pni qaytarishni boshlash imtihon oluvchining signalidan so'ng bajariladi. Uloqtirilgan to'pni qaytarish 20 soniya ichida amalga oshirilishi kerak. Chegaralangan zona tashqarisiga chiqib to'p qaytarilsa, qayta takrorlash huquqi berilmaydi, qaytarilgan to'p hisobga olinmaydi.

3-test – 15 ball va texnika uchun – 5 ball, jami – 20 ball.

**3-test:** 6 marta 15 metr masofadan har xil yo'nalishda (havodan yoki yerdan) uzatiladigan to'plarni tezlik bilan ushlab to'xtatish va 15 metr masofada belgilangan joy (stamp) ga uloqtirish (ushlangan to'xtatilgan va nishonga tekkizilgan to'plar soni baholanadi) imtihon oluvchining signalidan so'ng bajariladi:

29. Havodan uzatilgan to'pni ushlabda qo'llar harakatini to'g'ri bajarish;
30. Havodan uzatilgan to'pni tagiga kelib ishlash;
31. Yerdan uzatilgan to'pni qo'l va oyoqlar bilan to'g'ri to'xtatib qolish;
32. Havodan yoki yerdan uzatilgan to'pni ushlagandan yoki to'xtatgandan so'ng, to'pni 15 metr masofada belgilangan joy (stamp) ga otish vaqtida qo'llarning to'g'ri harakatini nazorat qilish;
33. To'pni belgilangan joy (stamp) ni aniq nishonga olish.

**Izoh:** Testni boshlash imtihon oluvchining signalidan so'ng bajariladi.

4-test – 15 ball va texnika uchun – 5 ball, jami – 20 ball.

**4-test:** Batsman/to'qmoqchi ortida joylashib viket-kiper qo'lqoblarini kiyib chap yoki o'ng yondan kelgan to'plarni ushlab qolish (viket-kiper darvozabon 6 marta har xil yo'nalishda uloqtirilgan to'plarni ushlabda soni va ushlab vaqti holati, qo'l va oyoq harakati, umumiy texnika baholanadi) imtihon oluvchining signalidan so'ng bajariladi:

1. Uloqtirilgan to'pni ushlab olish uchun mo'ljallangan dastlabki holatni to'g'ri qabul qilish;
2. To'pni qabul qilish vaqtida qo'llarni to'pni kelish yo'nalishiga qaratib to'g'ri harakatini

nazorat qilish ;

3. Uloqtirilgan to'pni to'g'ri to'xtatish.

**Izoh:** Testni boshlash imtihon oluvchining signalidan so'ng, bajariladi.

**Umumiy izoh:**

1. Abituriyentga testdan oldin 10 daqiqa razminka beriladi.

2. Barcha test natijalarining maksimal bali – 93

**Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha**

1-testda ko'rsatilgan maksimal natija uchun – 21 ball.

**1-test:** 4 marta 10 metr masofaga "mokkisimon" tartibda yugurish (soniya) (yugurishga sarflangan vaqt hisoblanadi) imtihon oluvchining signalidan so'ng bajariladi, texnik holatlar:

13. Yuqori startdan, imtihonchining signaliga binoan, old tomondan oldingi chiziqqa qarab amalga oshiriladi, oyoq bilan chiziqlarga tegish majburiydir;

14. Signaldan oldin startdan chiqib ketish mumkin emas.

2-testda ko'rsatilgan maksimal natija uchun – 21 ball.

**2-test:** To'ldirilgan to'pni bosh orqasidan uloqtirish (metr) (O'g'il bolalar uchun 3 kg, qiz bolalar uchun 2 kg., to'ldirma to'p uloqtirilgan masofa hisoblanadi ) imtihon oluvchining signalidan so'ng bajariladi, texnik holatlar:

6. Signal berilishi bilan u to'ldirilgan to'p bosh orqasidan maksimal uzoqlikka uloqtirishi kerak;

7. To'ldirilgan to'pni pastdan uzoqlikka uloqtirish mumkin emas;

8. To'ldirilgan to'p bir qo'lda uloqtirilganda test to'xtatiladi;

9. To'ldirilgan to'p qo'llar bilan ko'krakdan uloqtirilganda test to'xtatiladi;

10. To'ldirilgan to'pni bosh orqasidan uloqtirilgan masofasi (metr) aniqlanadi;

11. To'ldirilgan to'p qo'llar bilan bosh orqasidan ikkala oyoqlar yerdan ko'tarilgan holda uloqtirilganda test to'xtatiladi.

3-testda ko'rsatilgan maksimal natija uchun – 21 ball

**3-test:** Turgan joydan uzunlikka sakrash (metr) (turgan joydan uzunlikka sakragandagi masofa hisoblanadi) imtihon oluvchining signalidan so'ng bajariladi, texnik holatlar:

1. Signal berilishi bilan u turgan joyidan chiziqni bosmasdan uzunlikka sakrashi kerak;

2. Uzunlikka sakrash topshiruvchining sakrab qo'ygan oxirgi oyog'i yoki qo'lidan o'lchanadi

3. Sakrash vaqtida boshlang'ich chiziq bosilganda test to'xtatiladi.

**Umumiy izoh:**

1. Abituriyentga testdan oldin 10 min. razminka beriladi.

2. Kirish sinovlari davomida har bir abituriyent tegishli sport turi bo'yicha sport kiyimiga (ekipirovka) ega bo'lishi kerak. Umumiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha meyoriy talablarni topshirish uchun sport kiyimi (ekipirovka):, sport kalta ishtoni, mayka, sport oyoq kiyimi, ega bo'lishi kerak.

3. 1, 2 va 3 testlarni bajarish uchun faqat bir marta imkoniyat beriladi.

4. Barcha test natijalarining maksimal bali – 63.

Kafedra mudir

Imzo

F.I.Sh